

Date: 17<sup>th</sup> November-2024

**PROFILAKTIKA INSPEKTORLARINING MAVSUMIY HUQUQBUZARLIKLAR  
PROFILAKTIKASI BO'YICHA FERMER XO'JALIKLARI BILAN O'ZARO  
HAMKORLIGI**

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi 318-guruh kursanti

**Murodov Asadbek Ulug'bek o'g'li**

227-guruh kursanti

**Nazarova Go'zal Alisherovna**

**Annotatsiya:** Ushbu ilmiy maqola mavzusining dolzarbligi shundaki, Profilaktika inspektorlarining mavsumiy huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'yicha fermer xo'jaliklari bilan o'zaro hamkorligi tushunchasi, o'ziga xos xususiyatlari tashkiliy-huquqiy asoslari, tartibga soluvchi normalar. Shuningdek, profilaktika inspektorlarining mavsumiy huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'yicha fermer xo'jaliklari bilan o'zaro hamkorlikdagi faoliyati doirasida yuritiladigan protsessual hujjatlar, ushbu faoliyatdagi muammo va kamchiliklar, hamda ayrim turdagi mavjud muammo va kamchiliklarni bartaraf yetish bo'yicha bir kator takliflar yoritib o'tilgan.

**Аннотация:** Актуальностью темы данной научной статьи является концепция взаимного сотрудничества инспекторов профилактики с фермерскими хозяйствами по профилактике сезонных правонарушений, ее специфика, организационно-правовые основы, нормативные нормы. Кроме того, освещены процессуальные документы, проблемы и недостатки в этой деятельности, а также ряд предложений по устранению отдельных видов имеющихся проблем и недостатков.

**Ilmiy maqolaning dolzarbligi:** " Mamlakatimizni demokratik yangilashning bugungi bosqichida eng muhim yo'nalishlaridan biri bu – qonun ustuvorligini va qonuniylikni mustahkamlash, shaxs huquq va manfaatlarini ishonchli himoya qilishga qaratilgan sud-huquq tizimini izchil demokratlashtirish va liberallashtirishdan iboratdir. Bir so'z bilan aytganda, yurtimizda huquqiy davlat asoslarini yanada takomillashtirish va aholining huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish biz uchun hal qiluvchi vazifa bo'lib qolmoqda.

Aynan shuning uchun ham mamlakatimiz mustaqilligining dastlabki yillaridan boshlab islohotlarning mazkur yo'nalishiga alohida e'tibor qaratilganligi bejiz emas. Ana shunday yondashuv tufayli bu boradagi ishlarni ko'lami, miqyosi samaradorligi keyingi o'n yillikda nixoyatda kengayib yangi bosqichga ko'tarilganligini ko'p misollarda ko'rish mumkin.

Ta'kidlab o'tish joizki, keyingi yillarda Ichki ishlar organlarining tayanch punktlari negizida ma'muriy xuddagi jamoat tuzilmalari, ayniqsa fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, yarashtirish komissiyalari hamda diniy ma'rifat va ma'naviy-axloqiy tarbiya bo'yicha maslaxatchilar bilan bir qatorda profilaktika inspektorlari mavsumiy huquqbuzarliklarning oldini olish bo'yicha mahalla hududidagi fermer xo'jaliklari bilan



Date: 17<sup>th</sup> November-2024

o'zaro hamkorlikni samarali tashkil etishi natijasida sodir etilishi mumkin bo'lgan jinoyatlarning oldini olishga erishiladi.

Hozirgi kunda Ichki ishlar organlarining profilaktika xizmatlari tomonidan keng jamoatchilik yordamiga tayangan holda mahallarda aholining tinchligini ta'minlash, jamoat tartibini saqlash va har qanday turdagi huquqbuzarliklarni oldini olishga erishilmoqda. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov Ichki ishlar organlari xodimlarining kasbiy bayrami munosabati bilan yo'llagan tabrigida" Profilaktika inspektorlarining malakasi va professional maxoratini oshirish g'oyat muhim vazifalardan biridir. YUksak professionalizim, xushmuomalalik, odamlar orasiga kirib borish, yoshlar qalbiga yo'l topa bilish, oila va maktab o'rtasida mustahkam aloqa o'rnatish – xar bir profilaktika inspektorining asosiy xususiyatlari bo'lmog'i darkorligini ta'kidladi."

Ichki ishlar organlarining eng quyi tizimi hisoblangan tayanch punktlarida xizmat olib boruvchi profilaktika inspektorlari faoliyati rivojlangan davlatlar tajribalari va mahalla insitutlarini inobatga olgan holda tashkil etilgan bo'lib, bugungi kunda o'z hududidagi fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, tashkilot, muassasa, korxon va xo'jaliklar bilan o'zaro hamkorlikdagi faoliyati natijasida jamoat tartibini saqlash, fuqarolar xavfsizligini ta'minlash, jinoyatlarni barvaqt oldini olish kabi bir qancha vazifalarni bajarib kelmoqda.

Profilaktika inspektorlarining mavsumiy huquqbuzarliklar bo'yicha fermer xo'jaliklari bilan o'zaro hamkorlikdagi faoliyati natijasida Oz miqdorda talon taroj qilish, Ekinzorlarni payhon qilish, huquqbuzarliklari hamda mavsumiy o'g'rilik jinoyatlarini oldini olish bo'yicha huquqbuzarliklar profilaktikasi chora-tadbirlarini amalga oshirish faoliyatini samarali tashkil etish, bevosita qonun ustuvorligini ta'minlash, hamda qishloq xujalik ekinlarini muxoqaza qilish, fuqarolarning ekinlardan mo'l xosil olishini ta'minlash, olingan xosillarni bozorda sotish orqali oilaviy budjetni mustaxkamlashga xizmat qiladi.

Ekinzorlarni payhon qilinishini oldini olish yuzasidan huquqbuzarliklar profilaktikasi chora-tadbirlarini amalga oshirish faoliyatini samarali tashkil etishda birinchi navbatda ekinlarni doimiy ravishda yetishtirish va parvarishlash faoliyati bilan shug'ullanuvchi fermer xo'jaliklari bilan hamkorlikda faoliyat yuritish shu bilan birgalikda ushbu faoliyatni amaliyotda ischil qo'llab borish, taxlil qilish va takomillashtirib borish zarurdir.

Ekinzorlarni payhon qilinishini oldini olishga doir huquqbuzarliklar profilaktikasi chora-tadbirlarini amalga oshirish faoliyatini samarali tashkil etishga xizmat qiluvchi metodik qo'llanmalar yetarli emasligi, hamda barcha profilaktika inspektorlari bunday metodik materiallar bilan bir xilda ta'minlanmaganligi, natijada profilaktika inspektorlari bu faoliyatda yetarli huquqiy bilimlarga ega bo'lmayotganligi natijasida profilaktika inspektorlari o'z hududidagi fermer xo'jaliklari bilan qanday hamkorlik o'rnatishni hamda ushbu hamkorlikning samaradorlik natijasini tushunmayotganliklari, aholi bilan huquqbuzarliklar va jinoyatlar bo'yicha targ'ibot – tashviqot ishlari yetarli darajada olib borilmayotganligiga olib kelmoqda.



Date: 17<sup>th</sup> November-2024

Malumki, respublikamizda o'z ish faoliyatini olib borayotgan profilaktika inspektorlarining 65 % dan ko'proq qismining xizmat xududlari viloyat-tumanlarda, anikrog'i kishloklar kesimiga togri keladi. Aynan shuning uchun xam profilaktika inspektorlarning kishlok xujaligi soxasidagi huquqbuzarliklarni aniklash , ularni barvakt oldini olish hamda shu bilan birgalikda bu yunalishda profilaktik chora-tadbirlarni ishlab chikishni takazo etadi.

Ekologiya sohasidagi huquqbuzarliklar uchun javobgarlikni ko'zda tutuvchi mamuriy javobgarlik qonunchiligini amaliyotda qo'llash shuni ko'rsatmoqdaki, ular umumiy huquqbuzarlik miqdoridan faqat 2,3 foizni tashkil qiladi. Ularning ichida esa eng ko'pi 80 foizni, ekinzorlarga shikast yetkazish yoki ularni nobud qilish huquqbuzarligi xisoblanadi (MJtKning 104-m.).

**Ekinzor deganda**, xo'jalik ekinzorlari hamda qishloq xujaligi ekinlarini suniiy ravishda o'tkazish, shu bilan birgalikda xali unib chiqmagan urug' va nish urgan buta va ko'chatlar ham ekinzor xisoblanadi. Bular asosan fuqarolarga tegishli yer uchaskalarida o'zlari uchun yoki sotib daromad topish maqsadida ekilgan poliz ekinlari, fermer xo'jaliklari yoki bugungi kundagi klasterlarga tegishli bo'lgan ekin maydonlarida ekilgan qishloq ho'jaligi ekinlari va sanitariya sog'lomlashtirish maqsadlarida tabiiy atrof-muxitni saqlash uchun suniy tarzda ekilgan ekinlar xisoblanadi.

**Ekinzorlarni payhon qilish** deganda, 1994 yil 22 sentabrda qabul qilingan va 1995 yil 1 apreldan kuchga kirgan O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi ko'deksining 104-moddasi 1-qismi dispozitsiyasida nazarda tutilgan chorva mollari yoki parrandalarning xo'jalik ekinlarini payhon qilish, qishloq xujaligi ekinlarining dalada to'plab quyilgan xosiliga zarar yetkazish yoki uni yuq qilib yuborish, ko'chatlarga shikast yetkazish tushuniladi. Ushbu moddaning ikkinchi qismi dispozitsiyasi esa ekinzor yoki ko'chatzorlarni xamma turdagi xarakatlanuvchi texnik vositalarida bosib o'tishni nazarda tutadi. Payhon qilish qasddan yoki extiyotsizlikdan bo'lishi mumkin. Buning oqibatida ekinlarning biologik butunligiga shikast etadi hamda narmal o'sish jarayoni to'xtaydi yoki butunlay nobud bo'ladi.

Profilaktika inspektorlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'yicha fermer xo'jaliklari bilan o'zaro hamkorlikdagi faoliyati natijasida yuqorida ko'rsatilgan huquqbuzarlik bilan bir qatorda mahalla hududida fermer xo'jaliklari yer maydonlaridan mavsumiy meva va sabzavotlarni, shuningdek fermer xo'jaliklariga mavsumiy tarqatiladigan selitra, azot va boshqa xo'jalik mahsulotlarini o'g'irlash, oz miqdorda talon taroj qilish kabi huquqbuzarliklarning o'z vaqtida aniqlab, bu huquqbuzarliklar natijasida jinoyatlar kelib chiqishining oldini olish va bartaraf etishga xizmat qiladi.

Ilmiy o'rganishimiz natijasida Fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, jamoat tartibini saqlash, shaxs, jamiyat va davlat xavfsizligini ta'minlash, huquqbuzarliklarning oldini olish va profilaktikasi bo'yicha respublikada yaxlit huquqiy tizim yaratilgan bo'lib, unda ichki ishlar organlari muhim o'rin egallaydi.

So'nggi yillarda huquqni muhofaza qilish, birinchi navbatda, jinoyatchilikka qarshi



Date: 17<sup>th</sup> November-2024



kurash sohasida hamkorlikni kengaytirish va kuchaytirish yaqqol namoyon bo'lmoqda. Buni jahonda integratsiyalashuv jarayonlarining jadal rivojlanishi, siyosiy, iqtisodiy, madaniy va ijtimoiy aloqalarning kengayishi, transport va aloqa vositalarining takomillashuvi, davlatlarga kirish va chiqishning, chegara va bojxona rasmiyatchiliklarining osonlashtirilishi, xalqaro munosabatlarda umuminsoniy qadriyatlarining, adolatlilik va birdamlik g'oyalarining ustuvorligi taqozo etmoqda.

O'tgan davr mobaynida ichki ishlar organlari tizimi takomillashtirish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshiriladi. Ayniqsa, ichki ishlar organlarining mahallalarda jamoat profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish uchun tashkil etilgan quyi bo'g'inini rivojlantirish va mustahkamlash bo'yicha salmoqli ishlar qilindi.

Huquqbuzarliklarning profilaktikasi doirasida aholi o'rtasida huquqiy targ'ibotni tashkil etishniig o'zi huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablari va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni o'z vaqtida aniqlash, ularni bartaraf etish hamda bu borada profilaktik choratadbirlarni amalga oshirishga imkon berdi.

Profilaktika inspektorlari aholi o'rtasida mahallalarda, o'quv yurtlarida, korxonada, muassasa, tashkilotlarda mutaxassislar ishtirokida turli mavzularda ma'ruzalarda aholiga targ'ibot va tashviqot ishlarini tashkil etishi birinchidan, fuqarolarning huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirishga, ikkinchidan, ularni turli jinoiy tajovuz va jinoyat qurbonlari bo'lishini oldini olishga, uchinchidan, shaxsda jamiyatga zid yo'nalishni shakllantiruvchi, voqe'a va jarayonlar huquqbuzarliklarning sabab va sharoitlari, kriminogen vaziyatlarni bartaraf etishga xizmat qiladi.

**Profilaktika inspektorlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'yicha fermer xo'jaliklari bilan o'zaro hamkorlikdagi faoliyatida quyidagi kamchilik va muammolar mavjud:**

- subektlar o'rtasidagi o'zaro hamkorlik jarayonida amaliy va axborot almashuv jarayonida hamkorlikning yetishmasligi;
- Profilaktika inspektorlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'yicha fermer xo'jaliklari bilan o'zaro hamkorligi faqatgina qog'ozda mavjud bo'lib, bu amalda deyarli bajarilmasligi va boshqalar;
- Ekinzorlar payxon bo'lishi natijasida ekinzor egasining chorva mollari yoki qo'ylarni egasini ogoxlantirmasdan turib unga kasddan shikast yetkazish, ularni o'zboshimchalik bilan so'yib yuborishi oqibatida fuqarolar o'rtasida boshqa nizoli xolatlarning kelib chiqishi ;
- Fermer xo'jaliklari yer maydonlarning atrofini to'liq muxofaza qilishning imkoni mavjud emasligi;

**Yuqoridagi kamchilik va muammolarni hal qilish uchun bugungi kunda profilaktika inspektorlari fermer xo'jaliklari bilan hamkorlikda ekinzorlarni payxon qilish huquqbuzarligini oldini olishda huquqbuzarliklar profilaktikasi chora-tadbirlarini amalga oshirish faoliyatini tashkil etishda quyidagi takliflarni keltirib o'taman:**

Date: 17<sup>th</sup> November-2024

1. Xozirgi paytda fuqarolarimiz orasida ommaviy axborot vositalari, jumladan «Telegram», «Instagram», «Imo», «Vatsap», «Vayber», «Odnoklassniki», «Feysbuk» va boshqa shu kabi ijtimoiy tarmoqlar juda ommalashib bormoqda va axoli barcha soxadagi yangiliklarni ushbu vositalar orqali olishmoqda.

Axolining internet orqali faolligini inobatga olib, shu kabi ijtimoiy tarmoqlarda fuqarolarni ogohlikka va hushyorlikka chaqirishga qaratilgan, ularning huquqiy ongini yuksaltirishga xizmat qiluvchi, huquqbuzarliklarning barvaqt profilaktikasini ta'minlashga qaratilgan targ'ibot-tashviqot ishlarini yanada takomillashtirish, shunga aloqador saytlar, kanallar tashkil etish, bloglar ochish va ko'paytirish hamda ekinzorlarni payhon qilganlik uchun javobganlikni ko'zda tutuvchi ogoxlantirish ruxidagi maqolalarni chop etish maqsadga muvofiq bo'ladi deb xisoblaymiz.

2. Fermer ho'jaliklari va Klasterlarga huquqbuzarliklarni oldini olish va bunga imkon berayotgan sabab-sharoitlarni aniqlash xamda aniqlangan xolatlar bo'yicha xudud profilaktika inspektoriga ma'lumot berishi yuzasidan Taqdimnoma kiritish.

